Нами было изучено состояние pH на различных участках кожного покрова лица (подбородок, обе щеки, нос, и лоб) у пациентов с различными степенями тяжести акне.

Результаты значения уровня pH на различных участках кожного покрова (шея, спина, плечо, предплечье, грудь) в контрольной группе показали, что средний показатель составил 5,46±0,18.

Таблица 1

Оценка степени тяжести течения акне по системе ДИА (n=102)

Степень тяжести	Диагностический индекс акне (ДИА)				Всего	
	Мужчины		Женщины			
	Общее число	%	Общее число	%	Общее число	%
Легкая, (0-5)	21	42	29	58	50	49,1
Средняя (6-10)	14	41,2	20	58,8	34	33,3
Тяжелая (11-15)	9	50	9	50	18	17,6
Всего	44	43,2	58	56,8	102	100

Таблица 2

Распределение больных вульгарными угрями по клиническим формам и степени тяжести (n=102)

тяжесть процесса	мужчины		женщины		всего	
	абс.	%	абс.	%	абс.	%
комедональная форма						
легкая	12	40%	18	60%	30	29,4%
средняя	4	66,7%	2	32,3%	6	5,9%
папуло-пустулезная форма						
легкая	9	45%	11	55%	20	19,6%
средняя	10	35,7%	18	64,3%	28	27,5%
тяжелая	4	44,4	5	55,6	9	8,8%
конглобатная форма						
тяжелая	5	55,6	4	44,4	9	8,8%

Таблица 3

Параметры pH различных участков кожи лица у больных с акне

Исследуемые участки кожи	Группа контроля (n=30)	Легкая (n=50)	средняя (n=34)	тяжелая (n=18)
Подбородок	5,42±0,15	6,16±0,29 *	6,19±0,25 *	6,24±0,23 *
Пр. щека	5,46±0,13	6,28±0,34 *	6,31±0,30 *	6,41±0,31 *
Лев. щека	5,43±0,14	6,19±0,31 *	6,22±0,28 *	6,29±0,24 *
Лоб	5,49±0,24	6,31±0,37 *	6,34±0,31 *	6,54±0,34 *
Нос	5,46±0,21	6,19±0,28 *	6,22±0,25 *	6,27±0,19 *
Средние показатели	5,46±0,18	6,23±0,30 *	6,25±0,27 *	6,31±0,26 *

Примечание: Отличие достоверно — u — критерий Стьюдента ($p<0,05$) по сравнению с показателем: * в контрольной группе; 11 с 2 группой ; 2 2 с 3 группой; 3 1 с 3 группой.

При легком течении с акне в исследуемых очагах, наблюдалось достоверное повышение pH кожи относительно контрольной группы и в среднем составляло 6,23±0,30, $p<0,05$ соответственно. Наибольшее значение pH в области лба – 6,31±0,37.

При средней степени тяжести акне в исследуемых очагах наблюдалось достоверное повышение pH кожи относительно контроля и в среднем составляло 6,25±0,27, $p<0,05$ соответственно. Наибольшее значение pH в области лба – 6,34±0,31.

У наконец у больных с тяжелым течением акне в исследуемых очагах наблюдалось достоверное повышение pH кожи относительно контроля и в среднем составляло 6,31±0,26, $p<0,05$ соответственно. Наибольшее значение pH также наблюдалось в области лба – 6,54±0,34.

Показатели pH между больными различным степеней тяжести анке всех участках исследования достоверно не отличались.

Следовательно, в 3 исследуемых группах у больных с акне мы наблюдали достоверное увеличение значений pH кожи, непосредственно в изучаемых очагах относительно контрольных значений, что скорей всего связано с повышенным салообразованием в исследуемых участках кожи. Однако достоверных отличий между исследуемыми группами не наблюдалось, что свидетельствует об отсутствии связи между увеличением уровня pH кожи и тяжестью кожного процесса.

Выводы: Таким образом, у больных акне как легкой, среднетяжелой, так и при тяжелой формой течения, наблюдается увеличение показателей pH кожи, что, по всей вероятности является следствием повышенного потоотделения в условиях жаркого климата и нарушением процессов метаболизма, вызванных жизнедеятельностью P. acnes и сопутствующих микроорганизмов. С другой стороны, повышение pH, способствуя снижению бактериостатических свойств кожи и повышенной контаминации грамнегативной патогенной флоры, замыкает патогенетический круг персистенции акне.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Кубанова А.А. Федеральные клинические рекомендации по дерматовенерологии / Кубанова А.А., Рахматулина М.Р., Малова И.О., Соколовский Е.В., Аполихина И.А., Мелкумян А.Г. // Дерматовенерология 2015: Болезни кожи. Инфекции, передаваемые половым путем. М.: Деловой экспресс, 2016. 768 с.

2. Масюкова С.А. Лечение акне низкими дозами изотретиноина. / С.А. Масюкова, В.В. Мордовцева, Н.Н. Кахишвили, Э.Г. Санакоева, Л.С. Круглова, Ю.П. Соколова // 2013. Клин дерм и венерол. №6. С: 7-12

3. Ali S.M. Skin pH: from basic science to basic skin care / S.M. Ali, G. Yosipovitch // Acta Derm Venereol. 2013 May; Vol. 93(3). P:261-7. doi: 10.2340/00015555-1531

4. Kim M.K. Comparison of sebum secretion, skin type, pH in humans with and without acne / M.K. Kim, S.Y. Choi, H.J. Byun,C.H. Huh, K.C. Park, R.A. Patel, A.H. Shinn, S.W. Youn // Arch Dermatol Res 2006; Vol. 298(3)/ P:113–119. doi: 10.1007/s00403-006-0666-0

5. Malik E. pH Dependent Antimicrobial Peptides and Proteins, Their Mechanisms of Action and Potential as Therapeutic Agents / E. Malik, S.R. Dennison, F. Harris, D.A. Phoenix // Pharmaceuticals (Basel). 2016 Nov 1;9(4):67. doi: 10.3390/ph9040067

6. Nast. A. European Evidence-based (S3) Guidelines for theTreatment of Acne Update 2016 / A. Nast, B. Dréno, V. Bettoli, K. Degitz, R. Erdmann, A.Y. Finlay, R. Ganceviciene, M. Haedersdal, A. Layton, J.L. López-Estebaranz, F. Ochsendorf, C. Oprica, S. Rosumeck, B. Rzany, A. Sammain, T. Simonart, N.K. Veien, M.V. Zivković, C.C. Zouboulis, H. Gollnick // JEADV. 2016. Vol. 30(8). P: 1261-1268.

7. Plewig G and Kligman's. Acne and rosacea. 4-rd edition / G. Plewig, A. Kligman, B. Melnik, W. Chen // Springer. 2019. 671 p-s.

8. Prakash C. Skin surface pH in acne vulgaris: insights from an observational study and review of the literature / C. Prakash, P. Bhargava, S. Tiwari, B. Majumdar, R.K. Bhargava//J Clin Aesthet Dermatol 2017; Vol. 10(7). P: 33–39.

9. Scholz C.F. The natural history of cutaneous propionibacteria, and reclassification of selected species within the genus Propionibacterium to the proposed novel genera Acidipropionibacterium gen. nov., Cutibacterium gen. nov. and Pseudopropionibacterium gen. nov. / Christian F. P. Scholz, Mogens Kilian // Int J Syst Evol Microbiol. 2016; Vol. 66(11). P:4422–4432.

10. Selway J.L. Toll-like receptor 2 activation and comedogenesis: implications for the pathogenesis of acne. / J.L. Selway, T. Kurczab, T. Kealey, K. Langlands // BMC Dermatol. 2013;13:10.

11. Shaheen B. A microbial aetiology of acne: what is the evidence? / Shaheen B., Gonzalez M. // British journal of dermatology. 2011. Vol. 165(3). P: 474-485.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LEPRA KASALLIGI BO‘YICHA EPIDEMIOLOGIK VAZIYAT – KECHAGI VA BUGUNGI MA’LUMOTLAR

N.M. Shokolonova, E.X. Eshboyev

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida lepra kasalligining paydo bo‘lish sabablari va kasallikning epidemiologik xususiyatlariga baho berilgan.

Tayanch so‘zlar: lepra, migratsiya, endemik o‘choqlar, strategik reja.

Эпидемиологическая ситуация по лепре в Республике Узбекистан – вчерашние и сегодняшние данные

Н.М.Шоколонова, Э.Х.Эшбоев

В этой статье оценены причины возникновения лепры в Республике Узбекистан и эпидемиологическая характеристика заболевания.

Ключевые слова: лепра, миграция, эндемичные очаги,стратегическое планирование.

Epidemiological state of leprosy in the Republic of Uzbekistan past and present data

N.M.Shokolonova, E.H. Eshboev

This article presents the causes of leprosy in the Republic of Uzbekistan and the epidemiological characteristics of the disease.

Key words: leprosy, migration, endemic foci, strategic planning.

Mavzuning dolzarbligi. Keyingi yillarda dunyo aholisi orasidagi ichki va tashqi migratsiyaning oshib borishi natijasida lepra (Xansen, moxov) kasalligi tez-tez qayd qilinadigan bo‘lib qoldi. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining bergan ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyoda 180-210 ming nafardan ortiq yangi bemorlar qayd etilmoqda. Ayniqsa, Braziliya, Hindiston, Indoneziya, Nepal va Shri-Lanka kabi davlatlarda faqatgina 14 yoshgacha bo‘lgan har bir million bolalar orasida lepra bilan kasallanish 21,23 dan 34,68 gacha boradi. Darhaqiqat, bolalar orasida kasallanish ko‘rsatkichining balandligi, albatta, kelajakda kattalar orasida kasallanish yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Aytish joizki, dunyoning kam rivojlangan 23 ta (Angola, Bangladesh, Kongo, Efiopiya, Madagaskar, Mozambik, Somali, Filippin va b.) davlatlarida hanuzgacha lepra bilan kasalanish davlat miqyosida muammo hisoblanadi [12,18].

Ispaniya, Italiya, Fransiya, Daniya, Norvegiya, Finlandiya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda ham keyingi 5-10 yil ichida lepra kasalligi qayd qilinadigan bo‘lib qoldi. Lekin ularning 80-90 foizi tashqaridan, jumladan, Lotin Amerikasi, Afrika va Osiyodan kirib kelgan migrantlar hisobiga ro‘y bermoqda [12].

O‘tgan asrning boshida Respublikamizning Orolbo‘yi qismida, ya’ni hozirgi Qoraqalpog‘iston hududida lepraga chalingan bemorlar soni yuqori darajada bo‘lgan. Lepra kasalligi bilan birlamchi kasallanish ko‘rsatkichi har 100000 aholiga nisbatan 30,4 dan ayrim joylarda 180,0 gacha yetgan. Bu jarayon uzoq yillar davomida davom etishi oqibatida mintaqada ushbu kasallikning juda katta 1000-1600 dan ortiq endemik o‘choqlari shakllangan. Sobiq ittifoq hududidan aniqlangan barcha bemorlarning har 20-25 foizi Qoraqalpog‘istonga, yana shunchasi qo‘shni Qozog‘istonga to‘g‘ri kelgan. Shu kungacha bu hududlardan 6000-8000 dan ortiq bemorlar qayd qilingan [5,9].

Uzoq yillar davomida olib borilgan epidemiyaga qarshi faol va samarali davo tadbirlari natijasida XX asrning 70-80 yillariga kelib, lepra bilan kasallanish Respublikamizda sporadik holatgacha kamayishiga erishildi. Lekin ta’kidlash kerakki, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan tashqari boshqa hududlarda, shu jumladan, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Andijon, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida ham lepra kasalligi sporadik holatda uchrab turgan. Kasallikning ushbu sporadik o‘choqlariga nisbatan e’tiborsizlik holatlari sababli, keyingi 20-30 yil

mobaynida asosiy aniqlangan 9 nafar bemor shu hududlarga to‘g‘ri kelgan. Ularning 5 nafari Qoraqalpog‘istonga qo‘shni bo‘lgan Xorazm viloyati fuqarolaridir.

Davlatimiz bilan qo‘shni davlatlarda (Afg‘oniston, Hindiston va boshqa davlatlarda) lepra kasalligining katta endemik o‘choqlari mavjud bo‘lib, turli siyosiy va iqtisodiy kelishmovchiliklar natijasida kasallik ustidan nazoratini mutlaqo susaytirib yuborilishi infeksiyaning boshqa mintaqalarga tarqalish xavfini yuzaga keltirmoqda. Dunyoda tashqi turizm va kuchayib borayotgan migratsiya jarayonlari oqibatida kasallikning tashqaridan kirib kelish xavfi oshib bormoqda. Respublikamizda lepra kasalligining o‘choqlarini o‘rganish va shu asosida xastalikning epidemiologik xususiyatlariga baho berish, uning epidemiologik nazoratini kuchaytirish hamda samarali profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish O‘zbekiston tibbiyotining dolzarb maqsadlaridan biridir.

Bu borada lepra kasalligining oldini olish, kasallikni barvaqt aniqlash, kasallik oqibatidagi nogironlik holatlarini keskin kamaytirish, kasallikning barqaror eliminatsiyasiga erishish, kasallikka chalingan bemorlarning tibbiy-ijtimoiy muhofazasini va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan tashkiliy tadbirlarni takomillashtirish, lepra kasalligining o‘ziga xos epidemiologik xususiyatlarini o‘rganish va samarali profilaktika usullarini takomillashtirish kelajakning zaruratini belgilovchi muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida lepra kasalligiga qarshi kurashning 2022-2030-yillarga mo‘ljallangan global milliy strategik rejasi ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiq etilishi, Respublikaning barcha hududlaridagi endemik o‘choqlarni bartaraf etish va kasallikning barqaror eliminatsiyasiga erishishga o‘zining munosib hissasini qo‘shmoqda. Darhaqiqat, Jahon Sog‘liqni Saqlash tashkiloti tomonidan 2021-2030-yillarni mo‘ljallab taqdim etilgan yo‘l xaritasida «esdan chiqarilgan» tropik kasalliklarni nol holatiga tushurish strategik rejasini amalga oshirish belgilangan [12,18].

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda lepra kasalligining profilaktikasi, tashxisoti, davosi va erta aniqlashda erishilgan yutuqlarga qaramasdan, ushbu kasallik tarqalashining epidemiologik xususiyatlarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi va aholi salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda lepraga qarshi kurash xizmatini tartibga solishga qaratilgan me’yoriy hujjatlar, kasallikka chalingan shaxslarning dispanserizatsiyasi va nogironlikni belgilash mezonlari ishlab chiqildi. Ayniqsa, lepra kasalligiga chalingan bemorlar va ularning oila a’zolariga nisbatan jamiyatdagi stigma va diskriminatsiyalashning oldini olish jamiyatimiz oldida turgan dolzarb maqsadlarimizdandir.

Lepra (sin: Ganzen kasalligi, xansenioz, prokaza) surunkali yuqumli kasallik bo‘lib, uni mikobakteriyalar (M.leprae, M.lepromatosis) qo‘zg‘atadi. Dastlab yuqori nafas tizimining shilliq sohasi (burun bo‘shlig‘i) zararlanadi, keyinchalik teri, periferik nerv tizimi va ichki a’zolar jarohatlanadi. Kasallik boshqa xastaliklardan inkubatsion davrining (3-4 oydan 5-6 yilgacha, hatto 15-25 yilgacha, ba’zan 30-50 yil) uzoq kechishi, prodromal belgilarining noaniqligi, dastlabki klinik belgilarining turli tumanligi, obyektiv simptomlarning murakkabligi bilan ajralib turadi.

Lepra kasalligining qo‘zg‘atuvchisi 1874-yili Norvegiyalik mikrobiolog Ganzen tomonidan (muallifning to‘liq nomi Gerhard Henrik Armauer Hansen – 1841-1912) aniqlangan. Lepra mikobakteriyalari obligat hisoblanib, ko‘proq hujayralar ichida joylashadi, sun’iy oziq muhitlarda undirishning ilojini hali bironta mutaxassis topganicha yo‘q [10,11].

Lepra kasalligining ma’lum bir hudud aholisi orasida tarqalishi ijtimoiy omillarning, ya’ni odamlarning iqtisodiy-ijtimoiy yashash darajasi, umumiy va sanitariya gigienik madaniyatining rivojlanganligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Sir emaski, iqtisodiy va maishiy shart-sharoitlarning tangligi butun bir jamiyatning, irqning yoki millatning barcha infektsiyalarga rezistentligini susaytiradi.

Kasallik aksariyat hollarda bemordan u bilan yaqindan uzoq vaqt maishiy muloqotda bo‘lganda yuqadi. Sanitariya-gigienik shart-sharoitlarning, xususan ijtimoiy madaniyatning pastligi yuqish jarayonini tezlashtiradi va darajasini doimiy ravishda oshirib boradi.

O‘zbekistonda lepra kasalligi qo‘zg‘atuvchisining rezervuari hayvonlar orasida aniqlanmagan. Infektsiya manbai esa yakkayu-yagona bemor inson hisoblanadi. Kasallikning lepromatoz shakliga uchragan bemorning burun-tomoq shilliq qismidan bir kunda bir necha o‘n million mikobakteriyalar ajraladi, ularning tarqalish radiusi 1-1,5 m ga yetadi. Kasallik aerogen (mayda hovoda muallaq holda uzoq vaqt tura oladigan aerozol zarrachalar vositasida) mexanizm va havo tomchi yo‘li (yuqori nafas yo‘llari shilliq qavatidan ajraladigan, qisqa masofa (1,5 metrgacha) ga tarqaladigan nisbatan yirik tomchilar) bilan tarqaladi degan ilmiy qarashlar mavjud. Shuningdek, bir guruh mutaxassislar terining zararlangan qismidan yuqadi degan fikrlarni ham bildiradilar [1,3,4]. Umuman olganda lepra kasalligining yuqish yo‘llari to‘g‘risidagi taxmin va nazariyalar juda ko‘p, ammo infeksiyaning inkubatsion davri uzoq yillar davom etishi, ekspermental sharoitda kasallikni yuqish yo‘llarini amalga oshirishning imkonsizligi bu nazariyalarni tasdiqlash yoki inkor etishni qiyinlashtiradi [13,14,15].

Tekshiruv usullari. Ushbu ilmiy ishimizni bajarishda biz O‘zbekiston Respublikasida 1931-2000-yillarda Samarqand viloyatining Bulung‘ur tumanida joylashgan leprozoriya hamda Qoraqolog‘iston Respublika leprozoriyasining arxiv materiallaridan, shu jumladan, kasallik tarixlari, ambulotoriya kartalari va epid.kartalardan hamda shu yillarda berilgan hisobot hujjatlardan foydalandik. Epidemiologik izlanishlar olib borilgan xulosalar biz tomondan ishlab chiqildi va mikrobiologik statistik usullardan foydalanildi.

Respublikamizda to‘plangan epidemiologik kuzatishlar va olib borilgan ilmiy tadqiqotlar kasallikning yuqish darajasi bemor bilan muloqotning tig‘izligi va davomiyligiga chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Lekin infeksiyaning yuqishi va uning faol shakli rivojlanishi uchun faqatgina kasallik manbai bilan muloqatning o‘zi kifoya qilmaydi. Buning uchun qator ekzogen va endogen omillarning birgalikdagi ishtiroki kasallikning yuqish va faol shakli rivojlanishi xavfini oshiradi. Barcha holatlarda ham endemik o‘choqlarda uzoq yillar davomida batsilyar bemor bilan birga yashash kasallik yuqish xavfi darajasini kuchaytiradi. Shuning uchun ham eng avval bemorning oila a’zolari, birinchi navbatda bolalari batsilyar bemor bilan ko‘p muloqotda bo‘lganliklari sababli ular ko‘proq kasallikka chalinadilar. Lepra kasalligi diagnostikasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan mintaqalarda bolalar orasida kasallik erta aniqlanadi. Aksariyat hollarda infektsiyaning inkubatsion davri uzoq davom etishi natijasida yoshlik davrida infeksiyani yuqtirgan shaxslar o‘smirlik yoki katta yoshga yetgan davrida faol lepra kasalligi qayd qilinadi.

Lepra kasalligiga chalingan bemorlarni uzoq vaqtga yopiq turdagi maxsus shifoxonalar (leprozoriyalarga) yotqizilgan, ya’ni ular izolyatsiya qilingan. Bu amaliyot sobiq ittifoq davrida kasallikka chalingan shaxslar jamiyatdan butunlay izolyatsiya qilinishi, bir qarashda yuqori samarali yondoshuv sifatida baholangan. Bu yondoshuv kasallikni davolashning samarali

usullari ishlab chiqilmagan davrda shu tariqa kasallik «manbai»ni omma orasidan olib chiqish orqali epidemiologik nuqtai nazardan yutuq deb tushunilgan. Shunga qaramasdan, inson huquqlariga rioya qilish nuqtai nazaridan hamda lepraga chalingan shaxslarga nisbatan jamiyatdagi stigma va diskriminatsiyani kuchaytirganligi sababli JSST bunday yondoshuvni qayta ko‘rib chiqish, bemorlarga qaratilgan izolyatsiya va cheklovlarga barham berishni talab qiladi [17,18,19].

Tekshiruv natijalari. Ushbu fikr va mulohazalarga tayangan holda biz Samarqand viloyatining Bulung‘ur tumanida joylashgan, 1931-yilda ochilgan leprozoriyada uzoq vaqt hamshira, farrosh, qorovul, oshpaz, haydovchi, dehqon, muhandis va santexniklarni keyinchalik kasalxona yaqin atrofidagi (0,5-1 km. uzoqlikda) 5000 ortiq mahalliy aholi vakillarini 10-20 yillab kuzatib bordik. Ularning barchasini tizimli ravishda bir necha bor tibbiy ko‘rikdan o‘tkazdik. Lekin bironta ham lepraga chalingan bemor qayd qilinmadi. Mana oradan yana 17 yil o‘tishiga (2006-yil leprozoriya yopilgan) qaramasdan lepraga chalingan bemorlar aniqlanmadi. Aytish joizki, 1931-yildan to 2006-yilgacha ushbu ulkan leprozoriyada butun Sobiq Ittifoqdan keltirilgan 1700 nafardan ortiq bemorlar davolangan. Ammo leprozoriya xodimlariga, hatto atrofdagi mahalliy aholining birontasiga ham kasallik yuqmagan. Xo‘sh, lepra yuqumli infeksion kasallik ekan, yuqorida ta’riflangan masalalarga qanday javob beramiz?

Uzoq yillik tajribalarimiz asosida bemalol ayta olamizki, lepra kam kontagioz kasallik hisoblanib, uning yuqishida oilaviy kontakt va irsiyatning ahamiyati juda yuqori.

Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar kasallikka barcha irq yoki millat vakillari chalinishi mumkinligini, bironta xalqda lepraga qarshi «maxsus rezistentlik» yo‘qligini ko‘rsatdi. Lekin masalaning ikkinchi tomoni bor, aholining yashashi uchun maishiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sanitar holat yaxshi bo‘lmas ekan, shu joyda istiqomat qiluvchi aholida aksariyat yuqumli kasalliklarga bo‘lgan immunitet, shu jumladan, lepraga bo‘lgan immun rezistentlik pasayadi. Lepra kasalligi bilan barcha yoshdagi odamlar kasallanishi mumkin (bundan go‘daklar mustasno), ammo mintaqadagi aholi orasida batsilyar bemorlarning soni, ikkinchidan kasallikning yuqumli xili (lepromatoz lepra) qanchalik ko‘p bo‘lsa, kasallikka moyil odamlarga, avvalambor muloqatda bo‘lgan bolalarga yuqish darajasi yuqori bo‘ladi.

Muhokama. Epidemiologik tadqiqotlar lepra kasalligi aksariyat mintaqalarda daryolarning dengiz va ko‘llarga quyiladigan hududlarida ko‘p uchraydi. Bunga bir qator omillar sabab bo‘lishi mumkin. Baliqchilikning sanoat sifatida rivojlanishi, XIX asrda daryo va dengiz sohillari ko‘plab aholining migratsiyasiga sabab bo‘lgan. Bu esa aholining quyi tabaqasini bir joyda to‘planishiga olib kelgan. Bir xil taom iste’mol qilish, undan tashqari doimiy nam havo, sovuq, shamol, sanitariya holatining yomonligi baliqchilar orasida lepra kasalligining tarqalishiga imkon tug‘dirgan.

Respublikamizdagi lepra kasallariga chalingan bemorlarning nisbatan ko‘pchiligini ko‘chmanchi turmush tarziga ega aholi populyatsiyasiga mansub bemorlar tashkil qiladi. Birinchidan ko‘chmanchi turmush tarziga ega aholi o‘rtasidagi bemorlarning nazorati o‘troq turmush tarziga ega aholiga nisbatan murakkabroq bo‘lishi, iqtisodiy, maishiy va sanitar gigienik sharoitlarning yetarli darajada bo‘lmasligi ko‘chmanchi turmush tarziga ega aholi populyatsiyalarida bu kasallikning ko‘proq tarqalishi omillari qatoriga kiradi. Ko‘chmanchi qabilalar orasida, jumladan nanay, qalmiq, buryat va mo‘g‘il oilalarida qadimdan lepra kasalligi ko‘p qayd qilingan va endemik o‘choqlarni yuzaga keltirgan. Toshkent viloyatining ayrim hududlarida, jumladan, Yuqori Chirchiq, O‘rta Chirchiq, Quyi Chirchiq tumanlari, Chirchiq, Angren va To‘ytepa shaharlari aholisi orasida 1952-1964-yillar mobaynida lepraga chalingan repressiyaga uchraganlar soni 37 nafarga yetgan. Keyingi izlanishlardan ma’lum bo‘ldiki, bemorlarning 32 nafari koreys millati vakillari, 5 nafari esa yaponlardan tashkil topgan ekan. Darhaqiqat koreyslar 1937-1940-yillari Uzoq Sharqdan repressiya qilingan, yaponlar esa ikkinchi Jahon Urushining oxirida (1946-yil) harbiy mahbuslar sifatida O‘zbekistonga olib kelingan.

Kasallikning oilada yoki oiladan tashqarida yuqib qolishi to‘g‘risida fikrlar bir-biriga unchalik mos kelmaydi. Albatta ko‘chmanchi xalqlar orasida «oilada» kasallanish holatlari yuqori bo‘lgan [2,7,8,16].

Shu borada bizning olib borgan tadqiqotlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, Xorazm viloyatida (1930-2023-yy.) aniqlangan jami 136 nafar bemorning 48,5 foizida, Surxondaryo viloyatida aniqlangan 82 nafar bemorlarning 43,9 foizida kasallik manbai ilgaridan oilasida (bobosi, otasi, onasi, akasi, ukasi, opasi, singlisi, amakisi, tog‘asi va b.) bo‘lgan. Xorazm viloyatiga lepra kasalligi 16,2 foiz holatda eski endemik o‘choq hisoblanmish Qoraqalpog‘istondan, 11,5 foiz holatda esa Qozog‘istondan, xuddi shunday Surxondaryo viloyatiga 32,0 foiz holatda tashqi migratsiya tufayli qo‘shni Tojikiston Respublikasidan kirib kelgan.

XX asrning boshlarida Toshkent shahrida aniqlangan bemorlarning 67,1 foizi qo‘shni davlatlardan migrasiya tufayli kelib qolishgan. Bu jarayon uzoq davom etgan. Inqilob, ichki kelishmovchiliklar, butun bir bosh aholini quloq qilish, surgun va repressiyalar natijasida Toshkent shahriga 1931-1960-yillarda qayd qilingan yangi bemorlarning 44,1 foizi tashqaridan kirib kelgan. Xuddi shunday 1931-2001-yillarda Toshkent viloyatida aniqlangan bemorlarning 96,7 foizi chetdan kelgan va ularning hisobiga bu hududlarda kasallikning kichik-kichik o‘choqlari yuzaga kelgan. Hozirgi paytga kelib, xuddi mana shunga o‘xshash holat Amerika Qo‘shma Shtatlari va barcha Yevropa davlatlarida ro‘y bermoqda. Bu joylarga ham kasallik tashqi migratsiya tufayli Sharqiy Osiyo, Markaziy va Janubiy Afrika va Lotin Amerikasi kabi davlatlardan kirib kelmoqda [15,16].

Xulosa. Shunday qilib, lepra kasalligiga chalingan bemorlar uchun maxsus ochilgan (ayrim davlatlardagina) leprozoriyalar epidemiologik nuqtai-nazardan juda katta ahamiyat kasb etmagan. O‘sha paytlari kasallikning maxsus davosi bo‘lmaganligi hisobiga infeksiya manbaini izolyatsiya qilish bo‘lgan xolos.

Lepra kam kontagioz kasallik hisoblanib, uning shaxsiy gigiena qonun-qoidalariga rioya qilgan holatlarda tibbiyot xodimlariga yuqish darajasi nolga teng. Hatto uning leprozoriyada faoliyat ko‘rsatayotgan xizmatchilarga va atrofda istiqomat qilayotgan mahalliy aholiga hech qanaqa xavfi yo‘q.

Kasallik sporadik holatga tushirilgan hozirgi paytda uning yuqish darajasi bemorning oila vakillariga juda yuqoridir. Bir oilada birgalikda uzoq vaqt yashash kasallikning yuqib qolishiga sabab bo‘ladi.

Lepra kasalligining ma’lum hududlarda tarqalishida migratsiyaning o‘rni juda baland hisoblanadi.

Bemorlarning yaqin maishiy muloqotdorlarini mukammal tibbiy nazoratdan o‘tkazib turish ular orasida yangi kasallarni erta aniqlashga zamin yaratadi.

Va nihoyat aytish joizki, ijtimoiy, iqtisodiy, klimatik, irsiy va tibbiy sanitar gigienik qonun-qoidlarni bilmaslik odamlarning yoppasiga tibbiy madaniyatining past bo‘lishi kasallikning yuzaga kelishida sezilarli ta’siri bor.

Sportchi, tadbirkorlar, o‘quvchi, talabalar, diplomatlar, qolaversa, oddiy xizmatchilar va turistlar butun dunyo bo‘ylab migratsiyada yurgan bir paytda lepra kasalligining kirib kelish xavfini yoddan chiqarmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдиров Ч.А. Стратегия на элиминацию лепры в аспекте диспансеризации групп повышенного риска заболеваемости лепрой и рецидива: методические рекомендации. Нукус: Каракалпакстан, 1996. 20 с.
2. Babajanov.X.R., Moxov kasalligining epidemiologik xususiyatlari, uning profilaktikasini takomillashtirish (Xorazm va Surxondaryo viloyatlari misolida): dis. dokt. filosofii (PhD) T., 2022. 49 b.
3. Джаханов М. Лепра в Кулябской зоне Хатлонской области РТ: материалы конференции // Международная Юбилейная научно–практическая конференция, посвященная 70-летию противолепрозной службы Республики Таджикистан. Душанбе, 2006. С.56-57.
4. Дуйко В.В. Особенности организации противолепрозных мероприятий в России на современном этапе // Проблемы социальной гигиены, здравоохранения и истории медицины. 2013. №2. С.20-22.
5. Ещанов Т.Б., Абдиров Ч.А., Ющенко А.А., Урляпова Н.Г. Организация и научные основы ликвидации лепры в каракалпакской эндемической зоне. Нукус: Каракалпакстан, 2003. 168 с.
6. Ибрагимов Ш.И. Лепрозорий, расположенный на территории Самаркандской области закрылся // Международная юбилейная научно-практическая конференция, посвященная 80-летию противолепрозной службы Республики Казахстан: сборник научных трудов. Кзыл-Орда, 2009. С.76-77.
7. Меснянкина О.А. Совершенствование диагностики осложнений лепрозного процесса: автореферат дис. кандидата медицинских наук: 14.01.10 Москва, 2010. 26 с.
8. Мухамадиева. К.М., Косимов. А.М., Исматуллоева. С.С. Лепра/Хаснсениаз Этиопатогенез, клиника, диагностика, лечение и профилактика: Учебное пособие Душанбе, «Русская литература», 2020. 112 стр.
9. Нажимов Б.Н. Каракалпакскому лепрозорию 70 лет // Материалы международной научно-практической конференции, посвященной 70-летию Каракалпакского лепрозорию. Нукус: Билим, 2004. С. 1-12.
10. Niyazov X.A. Buxoro va Navoiy viloyatlarida aniqlangan moxovga (lepraga) chalingan bemorlarning retrospektiv tahlili //Проблемы биологии и медицины. 2010. №2(61). С. 98-99.
11. Кубанов А.А., Карамова А.Э., Семенова В.Г., Смольянникова В.А., Нефедова М.А.Рецедив лепры, развившийся после прекращения противолепрозной терапии // Вестник дерматологии и венерологии. М., 2016. №6. С. 66-72.
12. Руководство по диагностике, лечению и профилактике лепры. Астрахань: Всемирная организация здравоохранения, 2019. 105 с.
13. Сароянц В.Л., Арнаудова К.Ш., Абрамов Д.Д., Трофимов Д.Ю. «Разработка лабораторной диагностики лепры с помощью полимеразной цепной реакции» // Клиническая лабораторная диагностика. 2018. Том 63, №1. С.55-59.
14. Fayziyev. Ya. M. O‘zbekiston Respublikasi hududida aniqlangan moxovga chalingan bemorlarning millati bo‘yicha tahlili va jinsi bo‘yicha taqsimoti// IX Республиканской съезд эпидемиологов, гигиенистов, санитарных врачей инфекционистов Узбекистана: тезисы научных работ. Ташкент, 2010. С.154.
15. Eshboyev E.X., Babajanov X.R., Maxsudov M.R., Xudaynazarov S.Q. Terining yuqumli va parazitar kasalliklari hamda ularning laboratoriya diagnostikasi: monografiya. Toshkent: «Zilol buloq» nashriyoti, 2021. 256 b.
16. Eshboyev.E.X., Fayziyev.Ya.M. Namangan viloyatida moxov kasalligi bo‘yicha epidemik jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari // Тезисы научных работ Республиканской научно-практической конференции «Современные проблемы дерматовенерологии и косметологии» посвященной «Году гормонично развитого поколения». Ташкент, 2010. 88 б.
17. Eshboyev.E.X., Drabik. R., Nuratdinova. Z.K. Eski kasallik o‘chog‘i – yangi kasallik manbai //O‘zbekiston Respublikasi dermatovenerologlarning VII qurultoyi materiallari. – Toshkent. 2017 – 116 b.
18. World Health Organization. Global leprosy: situation 2016-2020. 2016. P. 1-20.
19. Babajanov X.R. Mycobacterium leprae: epidemiology, etiology and pathomorphology // Climate and resourse economic review–Volume–9 Issue–5 August 2021. – P.15–18.SJIF Impact factor (2021):7.254 Journal DOI: 10.36713/epra1213. ISSN:2347–7431

RANG-BARANG TEMIRATKILI BEMORLARDA TERI VA ICHAK MIKROBIOTSENOZINING HOLATINI O‘RGANISH

E.X. Eshboyev, M.R. Maxsudov

«Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» DM

Maqolada rang-barang temiratki bilan xastalangan bemorlarda teri va ichak mikrobiotsenozi holati keltirilgan. Rang-barang temiratki bilan xastalangan bemorlarda terisi va ichak mikroflorasi o‘rtasida ma’lum bir bog‘liqlik mavjud ekanligi kuzatildi. Bu esa rang-barang temiratki terisi va ichakning mikroflorasining holatini o‘rganish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Tayanch so‘zlar: Rang-barang temiratki, teri mikrobiotsenozi, ichak mikrobiotsenozi.

Исследование состояния микробиоценоза кожи и кишечника у больных разноцветным лишаем

Э.Х. Эшбоев, М.Р. Махсудов

В статье изучено состояние микробиоценоза кожи и кишечника у больных разноцветным лишаем. Отмечено, что у больных разноцветным лишаем существует определенная связь между микрофлорой кожи и кишечником. Это показывает, что целесообразно изучать состояние микрофлоры кожи и микрофлоры кишечника.

Ключевые слова: разноцветным лишай, микробиоценоз кожи, микробиоценоз кишечник.

Study of the state of microbiocenosis of the skin and intestines in patients pityriasis versicolor

E.Kh. Eshboev, M.R. Makhsudov

The article studied the state of microbiocenosis of the skin and intestines in patients pityriasis versicolor. It has been noted that in patients with lichen versicolor there is a certain connection between the microflora of the skin and the intestines. This shows that it is advisable to study the state of skin microflora and intestinal microflora.

Key words: pityriasis versicolor, skin microbiocenosis, intestinal microbiocenosis.

Rang-barang temiratki odamlar orasida ayniqsa, o‘spirin yoshlarlarda ko‘p uchraydigan terining zamburug‘li kasallligidir. Kasallik garchand terining yalllig‘lanishiga aloqasi bo‘lmasada, ammo yuqumlidir. Uning qo‘zg‘atuvchisi M.furfur terinig muguz qavatida joylashib, ko‘p terlaydigan va terining kimyoviy tarkibi o‘zgarib turadigan odamlarga yuqadi [1,5,8]. M.furfur terining nam va yog‘li bo‘ladigan sohalarini ko‘p zararlaydi, jumladan, ikki kurak oralig‘i, yelka, bo‘yinning yon tomoni, qorin va biqin, ba’zan sonlarning orqa qismi va bilaklar terisini zararlab u yerda turli shakl va katta kichiklikdagi oqimtir, jigar rang dog‘lar yuzaga keladi. Dog‘lar bir-biriga qo‘shilib periferiyaga qarab o‘sib kattalashishga moyil bo‘ladi. Ular rangi pushti sariqdan, to‘q qo‘ng‘irgacha, ko‘pincha sutli qahva rangida tuslanadi. Bemor subyektiv (achishish, og‘rish, qichish) kabi belgilarni sezmaydi, faqat dog‘lar yuzasida ko‘rinar-ko‘rinmas kepak tashlab turishi mumkin. [3,12,14,15].

Zamburug‘lar bemorlarning sochiga zarar yetkazmaydi, ammo boshning sochli qismida soch follikulalaring kirish qismini va terini shikastlaydi. Oqibatda bemorning sochlari orasida ko‘plab qipiqlar paydo bo‘ladi [4,10, 11].

Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, odamlar orasida kasallanish mo‘tadil iqlim sharoitlarida 4-5 foizgacha, tropik va subtropik iqlimda 50 foizgacha yetishi mumkin [1,14]. Lipidfil yoki yog‘li moddalarga talabchan achitqisimon zamburug‘lar avlodiga mansub Malassezia – odam terisida tez-tez uchrab turadigan simbionat hisoblanib, ularning ayrim vakillari mayin tukli hayvonlarining terisi va tuk follikulalari yuzasida uchraydi. Demak, ayrim paytlari keratamikozlarga sabab bo‘ladigan Malassezia zamburug‘ining manbai juda keng. Aytish joizki, kasallik simptomlari ko‘rinmaydigan belgilarsiz tashuvchilar ham juda ko‘p. Malassezia zamburug‘lari seboriyali dermatitda, atopik dermatitlarda, hatto blefaritda hamkorlikda kelishi mumkin [10,11].

So‘ngi yillarda bu toifadagi zamburug‘lar neotal pustulyoz, otit, hatto onixomikozda (M. Globosa, M. sympodialis, Malassezia spp.) ham ahamiyati bor, deb tushinilmoqda [16]. Malasseziylar avlodiga mansub barcha zamburug‘lar nomukammal tuzilishga ega bo‘lgan bazidiomitsetlardir. Ular kurtaklanish yo‘li bilan ko‘payadi. Hujayra devori juda qalin, taxminan 0?12 mikron va hujayra hajmining 25-35 foizini tashkil qiladi. Darhaqiqat, ushbu zamburug‘larning hujayra devori juda ko‘p turli xil funktsiyalarni bajaradi.

Ulardan eng muhimi zamburug‘larni strukturasini mahkam saqlaydi va himoya vazifasini bajaradi. Yana bir muhim vazifasi hujayra devori sirt tarangligi va yopishqoqligini oshiradi. Ushbu holat zamburug‘larning noyob lipofillik xususiyatlarini oshiradi.

Odatda kasallik bemorni deyarli bezovta qilmaydi, lekin masalani e’tiborli tomoni bor. Bu zararlangan o‘choqlar yuzasining oqarib qolishidir. Buning oqibatida uning ota-onalarining ichki hissiyotida mutloqa noto‘g‘ri tuyg‘ular paydo bo‘ladi. Ular oddiygina kosmetik nuqsonni vitiligo (pes) bilan adashtiradi. Aslida mana shu holat bemorni shifokorga murojat qilishga majbur qiladi.

Teri yog‘idagi to‘yinmagan yog‘ kislotalar lipooksigenaza fermentlarining oksidlanishi natijasida teri yuzasida dikarbon kislotasi to‘planib qoladi va ular ta’sirida melonotsitlar tirozinasining ingibitor faolligi pasayadi. Oqibatda melanin sintez qilinishi kamayib ketadi va teri sathida yuzaki gipopigment dog‘lar paydo bo‘ladi [4,8,13]. Oxirgi 10-15 yillik ma’lumotlarga qaragandam hozirgi zamon mikrobiologiyasi teri va turli organlarning, shuningdek oshqozon-ichak trakti shilliq qavatida ko‘pgina ekologik o‘choqlarda hayot kechiruvchi mikroorganizmlar yig‘indisi deb qaraladi [2].

Ichak mikroflorasining holati, shubhasiz, boshqa biotsenozlar bilan ham bog‘liqdir, shu jumladan teri mikroflorasi ham bundan mustasno emas [6,9].

Teri shohqavati ochiq o‘zi boshqaruvchi tizim hisoblanishi va bir qancha mikrobiotsenozlar sifatida berilishini hisobga olib, ko‘pgina mualliflar turli xil ichak disbakteriozi bo‘lgan bemorlarda teri mikroflorasi holatini o‘rganish bilan shug‘ullandilar va ularda son va sifat jihatidan chuqur disbiotik o‘zgarishlar borligini kuzatganlar [7].

Yuqorida aytilgan fikrlar shuni ko‘rsatadiki, ichak va teri mikrobiotsenozi holatini o‘rganish turli xil teri kasalliklarini kelib chiqishi va kechishi haqida salmoqli ma’lumotlar berishi mumkin.

Shu munosabat bilan ushbu kasallikni patogenetik mexanizmlarini, shu jumladan rang-barang temiratki bilan hastalangan bemorlar teri mikroflorasi, ichak mikrobiotsenozi holatini va ularning bir-biri bilan bog‘liqligini o‘rganish dermatomikologiyaning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Teri va ichak mikrobiotsenozidagi shartli-patogen mikrofloraning, rang-barang temiratkini klinik kechishidagi ahamiyatini o‘rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida rang-barang temiratkili 10-49 yoshdagi 100 nafar bemor, 20 nafar nazorat guruhidagi shaxslar olindi.

Tadqiqot natijalari. Rang-barang temiratkili bemorlarda teri mikroflora holatini va ichak mikrobiotsenozining buzilishini aniqlash uchun biz tadqiqotimizdagi 100 nafar bemorlarda yo‘g‘on ichak tarkibidagi mikroflorani o‘rganib chiqdik. Nazorat guruhi 20 nafar sog‘lom shaxslarni tashkil qildi.

Rang-barang temiratki bemorlarda terining zararlangan o‘choqlari mikroflorasi holatini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, terini yuvindi ekmalarini o‘rganish paytida zararlangan o‘choqlardan turli mikrofloralar qayd qilindi.

Rang-barang temiratki bilan tekshirilgan bemorlar orasida zararlangan 77 (77%) odamda turli xil mikroorganizmlar monoinfektsiya shaklida va 23 (23%) odamda ikki yoki uchta infektsiyalarning birga qo‘shilib kelganligi aniqlandi.

Rang-barang temiratkili 77 nafar bemorning zararlangan o‘choqlaridan monoinfektsiya ko‘rinishida aniqlangan mikroorganizmlar orasida Staphylococcus yepidermidis – 28 (36,4%), Staphylococcus aureus – 10 (12,9%), Staphylococcus saprophyticus – 12 (15,6%), Streptococcus spp. – 7 (9,1%), Candida spp. – 12 (15,6%) va Enterobacteriaceae spp. – 8 (10,4%) bemorlarda aniqlandi. 23 nafar bemorlarda qo‘shilib kelgan ikki yoki uchta mikroorganizmlar orasida Staphylococcus yepidermidis + Candida spp. – 3 (13,1%), Staphylococcus yepidermidis + Enterobacteriaceae spp. – 4 (17,4%), Staphylococcus yepidermidis + Staphylococcus aureus + Enterobacteriaceae spp. – 1 (4,3%), Staphylococcus aureus + Enterobacteriaceae spp. – 5 (21,7%) va Staphylococcus aureus + Candida spp. – 10 (43,5%) bemorlarni tashkil qildi.

Rang-barang temiratkining zararlagan teri o‘choqlarida sog‘lom terisi me’yoriy mikroflora mikrob peyzaji bo‘lmagan (Staphylococcus aureus, Streptococcusspp, Enterobacteriaceae spp.) mikrofloralarning sifat jihatidan ustunligi mavjudligi kuzatildi. Shu bilan birga, ularning soni ortdi, masalan: Staphylococcus yepidermidis nazorat guruhida 4,65±1,20 KHQB/sm2 ni tashkil etdi va rang-barang temiratki bilan kasallangan bemorlarning zararlangan teri o‘choqlarida bu ko‘rsatkich 21,34±2,87 KHQB/sm2 gacha ($p<0,001$), shunga o‘xshash holat Staphylococcus saprophyticus 1.50±0.83

KHQB/sm² ni va 3,98±1.08 KHQB/sm² ni (p <0.05) va Streptococcusspp. 1,55±0,72 KHQB/sm² va mos ravishda 4,07±1,50 KHQB/sm2 ga o‘sganligi kuzatildi (r<0,05). Candida avlodi zamburug‘larining miqdoriy ko‘rsatkichida ularning tarkibidagi o‘sish ham kuzatilgan (mos ravishda 0,60±0,28 KHQB/sm² va 5,36±0,94 KHQB/sm², r<0,001). Staphylococcus aureus va Enterobacteriaceae spp.ga kelsak, bu mikroorganizmlar sog‘lom odamlarning terisida aniqlanmagan va ular rang-barang temiratkili bemorlarning terisi zararlangan joylariga aniqlangan va ularning o‘rtacha miqdori Staphylococcus aureus. 11.87±2.02 KHQB/sm² (p <0.001) va Enterobacteriaceae spp. 2,50±0,54 KHQB/sm² (p <0,001) tashkil qildi.

Eubiotik holatni tavsiflovchi inson ichagi eng ko‘p mikrofloraga (yuzlab turlarga) ega ekanligi ma’lum bo‘lganligi sababli, biz himoya funktsiyalari bo‘lgan mikroorganizmlarning miqdoriy nisbatlarini (laktobakteriyalar, bifidobakteriyalar, enterokokklar, esherixiyaning LP va LN va Candida turdagi zamburug‘lar) boshqa opportunistik bakteriyalarga nisbatan o‘rgandik.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, rang-barang temiratkili 100 nafar bemorlarning 27 (27,0%) nafarida disbiotik buzilishlar bo‘lmagan. Qolgan 73 (73?0%) bemorlarda turli darajadagi disbakterioz holati aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rang-barang temiratkili bemorlarda disbakteriozning I darajasi 36,0% (36 bemor), II darajasi 22,0% (22 bemor) va III darajasi 15,0% (15 bemor)ni tashkil qildi.

Yo‘g‘on ichak tarkibidagi mikrofloraning miqdoriy tarkibini o‘rganilganda, rang-barang temiratkili bemorlarda anaerob mikroorganizmlarning umumiy soni nazorat guruhiga nisbatan ishonchli darajada pasayishi kuzatildi (p<0.001). va u o‘rtacha mos ravishda 9.01±0.04 lg KHQB/g, nazorat guruhda esa 10.21±0.08 lg KHQB/g ni tashkil qildi. Rang-barang temiratkili bemorlarda bifidobakteriyalar (7,63±0,08 lg KHQB/g ni, nazorat guruhida esa mos ravishda 9,67±0,08 lg KHQB/g) (r<0,001) va laktobakteriyalar (6,28±0,12 lg KHQB/g nazorat guruhida esa mos ravishda 7,33±0,09 lg KHQB/g) (r<0,001) sonnining pasayishi hisobiga anaeroblarning umumiy sonining pasayishiga sabab bo‘ldi. Bu bilan birga ushbu guruhdagi bemorlarda davolanish boshlanishidan oldin peptostreptokokklar sonining nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, statistik jihatdan sezilarli oshishi kuzatildi (r<0,001).

Rang-barang temiratkili bemorlarda aeroblarning umumiy soni 7,26±0,07 lg KHQB/g ni sog‘lom shaxslarda esa o‘rtacha 6,20±0,09 lg KHQB/g ni tashkil etdi, bu esa ushbu dermatomikoz bilan og‘rigan bemorlarda ushbu ko‘rsatkichning nazorat guruhiga nisbatan ishonchli darajada oshganligini ko‘rsatadi (r<0.001).

Shuni ta’kidlash kerak-ki, rang-barang temiratki bo‘lgan bemorlarda aeroblarning umumiy sonining ko‘payishi fonida, laktozapozitiv esherixiya (7,13±0,06 lg KHQB/g, r<0,001) va laktozanegativ esherixiya (3.83±0.11 lg KHQB/g, r<0,001), enterokokklar (5.64±0.02 lg KHQB/g, r<0.01) va A guruhidagi streptokokklar (2.05±0.10 lg KHQB/g, r<0.001) ko‘rsatkichlarini nazorat guruhiga nisbatan (mos ravishda 6,19±0,09 lg KHQB/g, 2,88±0,08 lg KHQB/g, 5,28±0,12 lg KHQB/g va 1,26±0,04 lg KHQB/g) miqdoriy tarkibini oshishi aniqlandi.

Ichak mikroflorasining potentsial patogen mikroorganizmning ko‘payishi, xususan proteylar rang-barang temiratkili bemorlarda disbiotik o‘zgarishlar mavjudligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Bizning izlanishlarimizda, ichak mikroflorasida Candida zamburug‘larining o‘rganish alohida qiziqish uyg‘otadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rang-barang temiratkili bemorlarda nazorat guruhi ko‘rsatkichlariga nisbatan Candida avlodi zamburug‘lari sonining 1,5 barobar ko‘payishi kuzatildi.

Rang-barang temiratkili bemorlarda ichak mikroflorasi ko‘rsatkichlari bilan teri mikroflorasi o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsion bog‘liqlikni o‘rganayotganda, rang-barang temiratki bo‘lgan bemorlarning terisida aniqlangan mikroflora singari Staphylococcus epidermidis, Staphylococcus aureus, Staphylococcus saprophyticus, Streptococcus spp., Candida spp. va Enterobacteriaceae spp. ichak mikroflorasi. aniqlangan kabi peptostreptokokklar, aeroblarning umumiy soni, Escherichia LP, Escherichia LN, enterokokklar, streptokokklar guruhi va Candida avlodiga mansub zamburug‘lari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri korrelyatsion bog‘langan, ammo aniqlangan ichak mikroflorasi kabi aeroblarning umumiy soni. bifidobakteriyalar va laktobakteriyalarning teskari korrelyatsiyasi, ya’ni aniqlangan teri mikrofloralari sonining ko‘payishi bilan ushbu ichak mikrofloralarining soni kamayadi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, rang-barang temiratki terisi va ichak mikroflorasi o‘rtasida ma’lum bir bog‘liqlik mavjud ekanligi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуллоева М.А., Зоиров П.Т. Современный взгляд на разноцветный лишай: некоторые аспекты патогенеза и особенности клинического течения в условиях жаркого климата// Вестник Авиценны. 2017. №1. с.31-36.

2. Ардатская М.Д., Дубинин А.В., Минушкин О.Н. Дисбактериоз кишечника: современные аспекты изучения, проблемы, принципы диагностики и лечения //Тер. архив. 2001. Т.73. №2. с.67-72.

3. Arifov S.S., Eshboyev E. X Teri-tanosil kasalliklari. O‘zbekiston millliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 1997. 162 bet.

4. Горбунцов В.В. Малассезиоз кожи. //Дерматовенерология, косметология, сексопатология. 2001. №1. с.138-145.

5. Заборова В.А., Арзуманян В.Г., Гуревич К.Г. Малассезиоз у спортсменов // Российский журнал кожных и венерических болезней. 2013. №6. С. 55-58.

6. Зайнулина О.Н., Печкуров Д.В., Хисматулина З.Р. Особенности микробиоценоза кишечника и его роль при атопическом дерматите у детей // Медицинский вестник Бошкортостона. Том 12. №4(70). 2017. с.109-115.

7. Знаменская Л.К. Состояние микробиоценоза кишечника у пациентов с атопическим дерматитом в зависимости от степени тяжести заболевания. Таврический медико-биологический вестник, 2013, 1: 80-82.

8. Котрехова Л.П Отрубевидный лишай // Вестник дерматологии и венерологии. 2016. №2. С. 104-109.

9. Круглова Л.С., Петрий М.Н., Генслер Е.М. Микробиота кишечника: роль в развитии атопического дерматита и методы терапии при ее нарушении// Медицинский алфавит // 2020 №6 с.22 - 26.

10. Мун А.В., Маннанов А.М., Адильгереева М.И. //Влияние обсемененности кожи грибами Малассезиа на течение атопического дерматита у детей. // Санкт-Петербургские дерматологические чтения. Сборник тезисов X Юбилейной научно-практической конференции дерматовенерологов и косметологов. 2016. С. 81-82

11. Одинцова И.В., Дюдюн А.Д., Гладышев В.В., Полион Н.Н.// Себорейный дерматит и Малассезиа спп. Дерматология та венерология. 2019. № 3 (85). С. 31-33

12. Родионов А.Н. Грибковые заболевания кожи. Санкт-Петербург. 1998. 306 с.

13. Сергеев Ю.В., Кукушкина С.В. Новые аспекты патогенеза и терапии Малассезиа-инфекций кожи // Успехи медицинской микологии. 2016.

14. Убайдуллаев З.Х. Оптимизация лечения больных разнотсветным лишаем с учетом эндогенной интоксикации и иммунного статуса //Автореф. Дисс.канд.мед.наук. Ташкент. 2012. 17 с.

15. Усубалиев М.Б. Особенности клинического течения и этиологического лечения разнотсветного лишая // Вестник Кыргызского-Российского Славянского Университета. 2013. Т.13. С. 118-120

16. Aspiroz C., Ara M., Varea M., Rezusta A., Rubio C. Isolation of Malassezia globosa and M. sympodialis from patients with pityriasis versicolor in Spain. Mycopathologia. 2002;154(3):111-117.

ХАРАКТЕРИСТИКА ГИСТОХИМИЧЕСКИХ И МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ ПОСЛЕДА ПРИ ВИЧ-ИНФИЦИРОВАНИИ

Л.М. Абдуллаева[1], Л.А.Сафарова[1], А.Т.Сафаров[2]

1 - Ташкентская медицинская академия

2 - Ташкентский Государственный стоматологичский институт

Изучение влияния ВИЧ-инфекции на развитие гестационных и перинатальных осложнений является актуальной задачей современного здравоохранения. В данной статье рассматриваются вопросы морфологических и гистохимических изменений плацентарной ткани у женщин, инфицированных ВИЧ.

Ключевые слова: беременность, ВИЧ-инфицирование, послед, морфология плаценты, гистохимическое исследование.

OIV infektsiyasi holatida yo‘ldoshdagi gistokimyoviy va morfologik o‘zgarishlarning xususiyatlari

L.M. Abdullaeva, L.A. Safarova, A.T. Safarov

OIV infektsiyasining homiladorlik va perinatal asoratlarni rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish zamonaviy sog‘liqni saqlashning dolzarb vazifasidir. Ushbu maqolada OIV bilan kasallangan ayollarda platsenta to‘qimalarining morfologik va gistokimyoviy o‘zgarishlari masalalari muhokama qilinadi.

Tayanch so‘zlar: homiladorlik, OIV infeksiyasi, platsenta, platsenta morfologiyasi, gistokimyoviy tadqiqot.

Characteristics of histochemical and morphological changes in the aftermission during HIV-infection

L.M. Abdullaeva, L.A.Safarova, A.T.Safarov

Studying the impact of HIV infection on the development of gestational and perinatal complications is an urgent task of modern healthcare. This article discusses the issues of morphological and histochemical changes in placental tissue in women infected with HIV.

Key words: pregnancy, HIV infection, placenta, placental morphology, histochemical study.

Актуальность. ВИЧ-инфекция является фактором риска развития преждевременных родов, перинатальных осложнений. Своевременная профилактика возникновения нарушений в фето-плацентарной системе способствует улучшению исхода беременности и родов у данного контингента больных. Плацента формируется как временный орган в организме матери во время беременности и необходима для развития плода. Различные клинико-морфологические и морфофункциональные аспекты развития и формирования плаценты на разных стадиях совершенствования и формирования плаценты у беременных на фоне соматической патологии оказывают резкое влияние на тенденцию развития плода. В период беременности, поскольку плод и его компоненты чужеродны организму матери, продолжается прогрессирование возникающего физиологического гравидарного иммунодефицита между матерью и ребенком (апоптоз иммунокомпетентных клеток и иммуносупрессия под влиянием гормона хорионического гонадотропина, вырабатываемого трофобластами с 8-го дня беременности). Поэтому вероятность заболевания ВИЧ (инфекционного генеза) у беременной матери высока. Это, в свою очередь, проявляется увеличением концентрации флогогенных медиаторов ФНОа, ИЛ-1b, ИЛ-6 в плазме крови. Этот процесс непосредственно проявляется развитием дистрофических, воспалительных процессов в структурах поверхности плаценты, обращенной к матке.

Цель исследования: изучить особенности морфологической и гистохимической картины последов у женщин с ВИЧ.

В нашей исследовательской работе обсуждались морфофункциональные аспекты беременности на фоне ВИЧ-инфекции. Важную роль играет выброс биологически активных веществ, выделяемых плацентой в организм матери во время беременности на фоне ВИЧ, и метаболитов, которые переходят в кровь матери, не подвергаясь вторичным изменениям в плаценте. Особенно на 1-м и 3-м месяцах беременности полноценное развитие плаценты и срок ее морфофункциональной службы напрямую связаны с деятельностью других органов выделения в организме матери. На VI-VII месяцах беременности одновременно наблюдается интенсивный рост и дегенерация сосочков плаценты. Под влиянием растущего плодного мешка и вследствие недопоступления необходимых питательных веществ в эпителии сосков образуются пролиферативно активные очаги. В результате вокруг сосков образуются редкие волокнистые структуры, дисперсные белые структуры, перешедшие из крови матери и плода, коагулируются и продолжают образовывать фибриноидные структуры. Другим важным изменением в плаценте в этот период является то, что капилляры в строме сосков приближаются к наружному эпителиальному слою, что приводит к ускорению обмена веществ.

